



## SHAXSNING IJTIMOYILASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Ashurova Gulrux Oxunovna,  
Qo'qon unversiteti "Ta'lim" fakulteti  
Katta o'qituvchisi*

*Qosimova Farangiz Sherzodjon qizi,  
Qo'qon unversiteti "Ta'lim" fakulteti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada shaxsning shakllanishi Shaxsning ijtimoiylashuvi, uning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida tushuncha berib o'tilgan. Shaxs jamiyatning faol a'zosi bo'lishi uchun bilim, ko'nikma va qadryatlarni egallashi lozimligi yoritilgan. Shaxs ijtimoiy muhitga moslashish va ma'daniy me'yorlarni o'zlashtirishni o'rganish usullari haqida bayon etilgan. Ushbu sanab o'tilgan tavsiflar shaxsning ijtimoiylashtirish omillari orqali o'rganiladi.

*Kalit so'zlar:* Shaxsning ijtimoiylashuvi, omillar, ijtimoiylashuv, shaxs taraqqiyoti, ijtimoiy psixologiya, tarbiya, o'z - o'zini anglash.

### **Kirish.**

Hamma davrlarda har qanday jamiyatda ham tarbiya ijtimoiy taraqqiyot manbai bo'lib kelgan. O'zbekistonning ertangi porloq kelajagi qanday bo'lishi yosh avlod tarbiyasi, ma'naviy meroslarimizdan to'g'ri foydalanishi va o'zi uchun xulosa chiqarishi, axloqi, dunyoqarashi hamda uning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillarga bo'g'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Yoshlarimizni ona Vatanimizga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste'dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro'yobga chiqarish yo'lida boshlagan katta ishlarimizni bundan buyon ham qat'iyat bilan davom ettiramiz"-deya ta'kidlagani bejiz emas[1].

Har qanday davlatning poydevori, uning mustahkamligi, barqarorligi, kelajagi ana shu yurtda voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama ma'naviy - axloqiy jihatdan kamol topishiga bevosita bog'liqdir, bu barkamollik shartlari avvalo oilada, ijtimoiy muhitda, ta'lim-tarbiya jarayonida hamda hozirgi kundagi eng dolzarb masala bo'lib qolgan internet ijtimoiy tarmog'idan foydalanish ta'sirida ro'y beradi. Biz bugun to'xtalib o'tadigan shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar mavzusi uni yuqorida to'xtalganimiz barkamol shaxs bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Chunki Ijtimoiy psixologiyada shaxs bevosita ozi ishtirok etib turgan muhit hamda guruhlar uning shakllanishida faolligiga ta'sir qiladi. A.V.Petrovskiy va Ya. L. Kolominskiy shaxsning ishtirok etib turgan guruhi "o'z qiyofasi"ni shaxsga yuqtiradi, degan g'oyani ilgari suradi. V.S. Merlin ham har bir jamoadagi shaxslararo munosabatlar shu guruh a'zolarida ayrim, shu guruhgagina xos bo'lgan fazilatlarini



tarbiyalaydi, deb yozgan edi. Shuning uchun ham hozirgi kunda shaxsni tushunish uchun real guruhlarini o'rganish, u yerdagi ustun muloqot tiplarini aniqlash va analiz qilish zarur bo'ladi. G'arb olimlaridan yana biri bu V. Pterndir u "Yangi tug'ilgan bolani odam emas sut emizuvchi deya ta'riflaydi" Bola dunyoga kelgandan huddi hayvon kabi bo'ladi u irsiyati orqali ya'ni ota - onasidan o'tgan belgilar bilan rivojlanib boyib boradi va vaqatlar o'tib shaxs bo'lib kamolga yetishini aytadi. Byullar bola faqat qobiliyatlarni ota - onadanmas ahloqiy normalar ham irsiyat orqali o'tishini aytadi<sup>1</sup>

Bugungi kunda shaxs shakllanishi uning ijtimoiylashuviga doir tadqiqotlar ta'lim muammolari bilan bog'lig'likda amalga oshirilib, uning turli jihatlari o'rganilib bahs doirasi chuqurlashib kengayib bormoqda.

Shaxs ijtimoiylashuvida uning muloqot ehtiyojlarining qondirilishi muhim rol o'ynaydi. Muloqot tufayli shaxs shakllanadi, kichik guruhlar paydo bo'ladi, katta guruhlar shakllanishi uchun sharoitlar mavjud bo'ladi.

Ijtimoiy muhit - insoning yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy sharoitlardir. Muhit keng ma'noda (makromuhit) ijtimoiy iqtisodiy tizimni -ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya tartib qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda ijtimoiy muhit (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat o'quv va boshqalar guruhlaridan iboratdir. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi Ayni vaqtda insonning ijtimoiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi. Ijtimoiy muhit bola shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblandi oilaviy sharoit ham aslida kichik ijtimoiy muhit hisoblandi lekin bunda bola to'lig'icha shakllanmaydi. Bola maktabga chiqib haqiqiy ijtimoiy muhitga kiradi, yon atrofdagilar bilan munosabati tubdan o'zgaradi va ijtimoiy muloqotni o'rganadi. Oilasida ota - onasiga qilgan erkliklarni yo'qotib shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ijtimoiy muhitda muomala madaniyati ham shakllanadi kimga, qaysi paytda qanday munosabatda bo'lish jarayonlarini o'rganadi. Bola tug'ilganida hayvoniy hislatlar bilan tug'iladi, huddi hayvon kabi bo'ladi ijtimoiy muhit bolani rivojlantiradi shaxs sifatida shakllantiradi. Hayvoniy hislatlardan yiroqlashib shaxs bo'lib shakllanadi. Ijtimoiy muhit bola rivojlanishi uchun muhim bo'laganligi sababli juda ko'p olimlar ijtimoiy

<sup>1</sup> Bahriddinova Nargiza Jaloliddinovna «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 42-b





muhitning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqadi. Bixevioraizm asoschilari N.Miller va D Dollard hisoblanadi. Ular bola hayotida ijtimoiy muhitning ro'lini yuksak baholab bolani shakllantiruvchi asosiy qisim deb biladi. Olimlar bola ijtimoiylashuvi uchun ota -onaning ro'lini yuksak baholab ularning alohida vazifalari borligini aytadi. Bola ijtimoiylashuvida ota -onalarning vazifasi bolani ovqatlantirish bolada agrsessiyaning namoyon bo'lishi, uning jinsiy indentifikatsiyasi va me'yoriy xulq atvorlarning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish kabi vazifalar yuklatilgan bo'ladi. Bola ijtimoiylashuvi murakkab jarayon bo'lganligi uchun ota -ona ko'magi kerak. Bola ijtimoiy muhitga kirganida uning tarbiyasi yurish -turishi odamlarga munosabati hattoki oilasiga munosabati ham o'zgaradi. Agressiyani moyillashtirish sharoitlarini o'rganish ijtimoiylashuv nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv jarayoni favqulotda keng va ko'p qirrali jarayondir.

Ijtimoiylashuv jarayoni oson bo'lishi uchun oilaviy sharoit ham juda muhimdir, bola xulqi yaxshi bo'lsa ijtimoiylash ham onsonlashadi, bolalarning turli davralarga erkin kirib turli odamlar bilan munosabatga kirishishi onson bo'ladi. Bunday jarayonda hulq albatta muhimdir. Bolaning ijtimoiy muhitga kishishida ota -ona juda e'tiborli bo'lishi kerak. Bolaning yon atrofidagi o'rtoqlari unga yomon ta'sir ko'rsatsa bola hayoti ham salbiy tomonga o'zgaradi.

Aynan muloqot va odamlarning bir-birlariga munosabatlari asosida namoyon bo'ladigan universal mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Taqlid qilish-biror xulq namunasi yoki turmush tarziga ergashish;

Ishontirish-biror xulq namunasi yoki fikrga o'zgalarni deyarli ongsiz va tanqidsiz ergashishiga erishish;

Ta'sirlanish- bir shaxs hissiy-emotsional holatining o'zga bir shaxsga uzatilishi jarayoni;

E'tiqod- shaxsning ongiga, imoniga ta'sir ko'rsatish;

Identifikatsiya-bir insonning boshqasiga o'xshatilishi, deyarli qo'shilishi jarayoni.

Aynan shu mexanizmlar shaxsning ijtimoiy xulq va uni o'zlashtirishning asosini tashkil etadi hamda uning jamiyatda ijtimoiylashuvida, o'z o'rnini topishida, boshqalarga ta'sirida namoyon bo'ladi.

Muloqot jarayonining ham guruhiy jarayonlarining ham egasi – sub'ekti hamda ob'ekti aslida alohida shaxs konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada alohida shaxs muammosini ham o'rgandikki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan



tekshiradi, shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik munosabatlarning ob'ekti deb qaraydi. Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni, ijtimoiy psixologiya avvalo biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qonun-qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks etishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada ijtimoiylashuv muammosi bilan uzviy bogliq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish, mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Shaxs ijtimoiylashuvi to'g'risida gap ketarkan, uning fanda ko'pincha "shaxs taraqqiyoti" yoki "tarbiyasi" tushunchalari bilan sinonimdek ishlatilishiga alo'hida e'tibor berish kerak.

Ijtimoiylashuv - bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va faol ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir.

#### **Ijtimoiylashtirish omillari**

1. Oila: Ota-ona, aka-uka va katta oila shaxsning qadriyatlarini, e'tiqodlari va xatti-harakatlarini yoshligidan shakllantirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Oila asosiy omil sifatida- ijtimoiylashuvning eng ta'sirli omili bo'lib, shaxsning qadriyatlarini, e'tiqodlari va xatti-harakatlarini yoshligidan shakllantiradi. Bolalar oilaviy muhitda muhim ijtimoiy ko'nikmalar, til va madaniy me'yorlarni o'rganadilar.

Oila birligi bolaning sog'lom hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tegishlilik, xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash tuyg'usini ta'minlaydi.

2. Tengdoshlar. Do'stlar, sinfdoshlar va ijtimoiy klublar kabi ijtimoiy guruhlar odamlarning o'zaro munosabatda bo'lish, muloqot qilish va o'z shaxsiyatini shakllantirish usullariga ta'sir qiladi.

3. Talim muassasalari: Maktablar, universitetlar va boshqa talim muassasalari odamlar ijtimoiy normalarni, akademik bilimlarni o'rganadigan va muhim hayotiy konikmalarni rivojlantiradigan tizimli muhitni ta'minlaydi. Ijtimoiylashtirishda maktabning roli ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganish, darsdan tashqari mashg'ulotlar, madaniy me'yorlar hisoblanadi.

Maktablar bolalar tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish va nizolarni hal qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadigan tizimli muhitni ta'minlaydi.





Maktabdagi to'garaklar, sport jamoalari va boshqa darsdan tashqari tadbirlarda qatnashish o'quvchilarga tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga va ijtimoiy ierarxiyalarni boshqarishni o'rganishga yordam beradi. Maktablar jamiyat me'yorlari, qadriyatlari va umidlarini etkazishda, o'quvchilarda maqbul xatti-harakatlar va ularning kengroq jamiyatdagi o'rni haqidagi tushunchalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Oila birligi bolaning sog'lom hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tegishlilik, xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash tuyg'usini ta'minlaydi.

Maktablar bolalar tengdoshlariva o'qituvchilari bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish va nizolarni hal qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadigan tizimli muhitni ta'minlaydi.

Maktabdagi to'garaklar, sport jamoalari va boshqa darsdan tashqari tadbirlarda qatnashish o'quvchilarga tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga va ijtimoiy ierarxiyalarni boshqarishni o'rganishga yordam beradi. Maktablar jamiyat me'yorlari, qadriyatlari va umidlarini etkazishda, o'quvchilarda maqbul xatti-harakatlar va ularning kengroq jamiyatdagi o'rni haqidagi tushunchalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shaxs ijtimoiylashuvi yoki shakllanishning o'z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud. Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi;

\*Faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bulib, bu jarayonda faoliyatlar katalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni ko'niktirish yo'lidagi faolliigi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

\* Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha Yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy- psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

\* O'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni „Men" obrazining yil sayin o'zgarib borish jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir .

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiylashuv  
Kuchli ta'sir



Ommaviy axborot vositalari, jumladan televidenie, filmlar, musiqa va internet, ayniqsa, shakllanish yillarida odamlarning ijtimoiylashuviga katta ta'sir ko'rsatadi.

#### Qadriyatlarga ta'sir qilish

Ommaviy axborot vositalari orqali shaxslar o'zlarining munosabatlari, xatti-harakatlari va shaxsiyatini shakllantirishi mumkin bo'lgan madaniy qadriyatlar, me'yorlar va e'tiqodlarning keng doirasi bilan tanishadilar.

#### Rol modellari va stereotiplar

Ommaviy axborot vositalari ko'pincha ayrim shaxslar yoki guruhlar o'rmak yoki stereotiplar sifatida ko'rsatadi, bu esa odamlarning jamiyatdagi boshqalarni idrok etishi va o'zaro munosabatiga ta'sir qilishi mumkin.

#### Madaniyatning globallasuvi

Ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi madaniyatning globallasuviga hissa qo'shdi, odamlarni mahalliy hamjamiyatdan tashqarida turli nuqtai nazarlar va tajribalar bilan tanishtirdi.

#### Ijtimoiylashtirish va madaniy normalar

##### 1 Qadriyatlar va e'tiqodlarning uzatilishi

Ijtimoiylashuv-bu shaxslarning o'z madaniyatining qadriyatlari, e'tiqodlari va me'yorlarini o'rganishi, ularning xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirish jarayoni.

##### 2 Ijtimoiy talablarga rioya qilish

Shaxslar ijtimoiylashgan sari, ular madaniy me'yorlar va kutishlarni o'z ichiga oladi, ularning harakatlarini jamiyat me'yorlariga muvofiqlashtiradi.

##### 3. Madaniy me'yorlarning xilma-xilligi

Turli madaniyatlarda ijtimoiylashuv jarayoni orqali beriladigan o'ziga xos me'yorlar, am'anal va qabul qilinadigan xatti-harakatlar to'plami mavjud.

##### 4. Madaniyatlararo ijtimoiylashuv muammolari

Bir madaniy kontekstda ijtimoiylashgan shaxslar boshqa madaniy muhitning me'yorlari va kutishlariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin

#### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yondashish uni ma'lum guruhlarining a'zosi, konkret sharoitida o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir. Shaxs ijtimoiylashuvi to'g'risida gap ketarkan, uning fanda ko'pincha "shaxs taraqqiyoti" yoki "tarbiyasi" tushunchalari bilan sinonimdek ishlatilishiga alo'hida e'tibor berish kerak. Yana shuni ta'kidlash joizki, shaxsning ijtimoiylashuvi orqali bir birlarini shaxsiyatini, o'ziga xosligini shakllantiradilar. E'tiqodlari, xatti-harakatlari munosabatlariga ta'sir qiladi.





Insonning jamiyatdagi o'z o'rnini topishida oilaning, tizimli ta'limning roli katta. Individdning ayniqsa, o'smirlilik Yoshi uning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Ayni shu paytda uning atrofidagi o'rtoqlari bilan muloqot jarayoni, ota onasining diqqat-e'tibori, u bilan suhbatlar uyushtirishi hissiyotlarini, fiziologik o'zgarishlarini psixikasiga ta'sirini bilishi uning o'rnini topishida ahamiyatlidir.

Har bir insonning ijtimoiyiligi faoliyat sahalarida takomillashib boradi. U mehnat faoliyati bo'ladimi, o'quv yoki muloqot faoliyatida faol bo'lsagina shaxslararo munosabatlarini ictimoiy qoidalarni yaxshi o'zlashtiradi.

Shuning uchun muhtaram yurtboshimiz „Bolaning bo'sh vaqti shaytonning ish vaqti” deb bejiz aytmaganlar.

Bolani ota-onasi, ustozlari faoliyat turlariga yo'naltirib turishi darkor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. David G. Myers. “ Psychology” Michigan USA: Worth Publishers.: 2011.
2. A.X.yugay, N.A.Mirashirova «Общая психология» Т. ТGPU, 2014.
3. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O'z.FMJ., 2008.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.
5. G'oziev E.G'. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Noshir. 2010.
6. Ашурова Г.О. Совершенствование современного дошкольного образования // Актуальные научные исследования в современном мире. 2018. №1 1-7 (43). С. 27- 30 novikova.pdf
7. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
8. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408-411.
9. Imomaliyeva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
10. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1048-1052.
11. Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. Kokand University Research Base, 216-219.
12. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. ISBN-13, 979-8324468415.



13. O Maxliyoxon. (2024). MODERN INTEGRATION OF PRIMARY EDUCATION, ART, PEDAGOGY AND INFORMATION COMMUNICATION. ISBN-13 : 979-8323781928 1, 158
14. Odilova, M. (2024). O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. *Nordic\_Press*, 3(0003).

